

Date: 7th January-2025

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING
QO‘LLANILISHI

Istamova Durdona Ulugbekovna

BuxDU 2-bosqich talabasi

durdonaulugbekovna03@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi mahorati, shuningdek, asardagi badiiy tasvir vositalarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: asar, ijodkor, badiiy tasvir vositalar, istiora, tashbih, tazod, mubolag‘a, metonimiya, tafsilot.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarini yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataymiz. Badiiy tasvir vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiradigan unsur hisoblanadi. Badiiy tilning eng muhim xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallik ko‘rsatiladi¹.

O‘zbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriyning ilk romani bo‘lmish “O‘tkan kunlar” asarida ham muallif badiiy tasvir vositalaridan juda mahorat bilan foydalangan. Bu asar, asosan, xalq tilida va tushunarli tarzda yozilgan. Asarda foydalanilgan badiiy tasvir vositalarining har birida chuqur ma‘no yashiringan. “O‘tkan kunlar” romanini mutolaa qilgan har bir kitobxon muallifning so‘z qo‘llashda naqadar mahoratli ekanligini, asarni o‘qish jarayonida qadim tarix bilan birga o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligining guvohi bo‘ladi.

Asarning boshlanishi “Yozg‘uchidan” qismida muallifning quyidagi so‘zlari kitobxonni o‘ziga jalb qilmasdan qo‘ymasligi shubhasiz: "Moziyg'a qaytib ish ko‘rish xayrlik deydi. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi "xon zamonlari" dan belguladim"². Keltirilgan iqtibosda istiora badiiy tasvir vositasidan foydalanilgan.

Adibimiz Abdulla Qahhor “eng kirlik, qora kunlar” iborasini istiora (metafora) sifatida qo‘llab, “kirlik” va “qora” so‘zlari orqali o‘sha davrda insoniyat hayotidagi og‘ir, qora hayotni, mashaqqatli kunlarni tasvirlab bergan. “Kirlik” va “qora” so‘zlari faqatgina istiora sifatida qo‘llanilibgina qolmay, obrazlilikni, ya‘ni

o‘sha davrdagi hayot tarzini ta‘sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Asarning “Kiroyi kuyaving shundog‘ bo‘lsa” degan qismida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan: “Ariqning musaffo, tiniq suvi yuvoshg‘ina oqib kelar,

¹ <https://arxiv.uz>

² Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Sharq.- Toshkent. 2012.5-b.



Date: 7th January-2025

Kumushbibining qarshisig'a yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohiraning sihriга musaxxar bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi"³. Bu jumlada muallif Kumushning naqadar nozik va husnda tengsiz ekanligini, hattoki ariqdagi suvlar ham Kumushbibi kelganida sekingina oqib, go'yoki unga maftun bo'lishlari, u kelganida nozik tebranishlari mahorat bilan tasvirlangan.

Romanni o'qish jarayonida ijodkor badiiy tasvir vositalaridan quyidagi o'rinlarda keng foydalanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin:

1. Ko'p hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul. (Metonimiya-hujra ichidagi odamlar nazarda tutilgan.)

2. Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi.(Metafora- kayfiyati buzildi degan ma'noda. Bu o'rinda jiyani Rahmatning tog'asi Homidga: -Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?,-degan savoli Homidning kayfiyatini buzadi. Negaki, Homid qutidirning qizini uchinchi xotin qilib olish niyatida edi.)

3. Qora ko'zlari, kamon qoshlari.(Tashbeh-Kumushning qoshlarini kamonga o'xshatilgan.)

4. Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar. (Tashbeh- Kumushning chiroyliligini, uning jamolini, yuzini oyga o'xshatgan)

5. Tun ayoz, izg'iriy yel to'rt tarafga yugurib jon achitmakchi bo'lar edi. (Jonlantirish-bunda shamolning harakati jonlantirilib, o'sha paytda havoning sovuqligini tasvirlagan.)

6. Ayblash, oqlash so'zlarimning ruhini siz bir yoqqa qo'ya bering-da, ishning ichki tomonini mulohaza qiling, qo'rboshi aka.(Tazod-"ayblash"va "oqlash")

7. Go'yo Yusufbek ham o'zidek bir qonxo'rga, bir zolimga aylansin emish. (Metafora- qonxo'r. Ushbu gapda Azizbek yetmish kunlik qamaldan so'ng xalqdan o'ttiz ikki tangadan soliq sochishini Yusufbek hojiga buyuradi. Bunga norozilik sifatida Yusufbek hoji xalqqa Azizbekning buyrug'ini aytib, buning uchun unga kimxob to'n kiydirilganini va Azizbekning fikricha, hoji ham Azizbek kabi qonxo'r kimsaga aylanishi kerakligini aytadi va xalqni qo'zg'olonga chorlaydi.)

8. Fuzuliyini yaxshilab o'qish kerak.(Metonimiya- Fuzuliy kitobi nazarda tutilgan.)

9. "... chiroylik bo'lsa ham menikidek xoli yo'qdir",-deb ko'nglidan kechirdi. (Tashbeh, qiyoslash. Otabek ota-onasi sabab Zaynabga uylanayotganligini eshitib, undan kelgan xatni o'qib, Otabekni to'ri tushunadi va ko'zguna qarab xayol surib xoliga qarab qoladi. Ya'ni Kumush o'zini Zaynab bilan yuzidagi xoli orqali taqqoslaydi.)

10. Yusufbek hoji "bu odam farzandi emas-farishta",-der, orada Zaynab bo'lmasa "farishta" deb atamoqqa ham hozir edi.(Tashbeh-Yusufbek hoji Kumushni farishtaga o'xshatganligi,bu o'xshatishning sababi Kumushbibi haqiqatdan ham juda chiroyli ekanligi, uning chiroyiga teng keladigan qiz yo'qligi haqida gap boradi.)

³ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Sharq.- Toshkent. 2012. 31-b.



Date: 7th January-2025

Asarni to'liq o'qib chiqqan kitobxon ijodkorning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati naqadar yuksak ekanligining guvohi bo'ladi.

Badiiy tasvir vositalari orqali kitobxonga asardagi o'sha davr hayoti, har bir obrazlarning o'ziga xos ichki kechinmalari, hissiyotlari ixcham va tushunarli, sodda tilda ifodalab berilgan. Abdulla Qodiriy asarda, nafaqat Otabek va Kumushning bir-birlariga bo'lgan muhabbatini, shu bilan birga, Marg'ilon va Toshkentdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, oilaviy turmush, ona va farzand orasidagi o'zaro munosabat, ota va farzandning bir-biriga bo'lgan muloqoti, o'zbek xalqining urf-odatlarini, oddiy xalq va xon orasidagi nizo va kelishmovchiliklarni tasvirlagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, asarda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi uning ta'sirchanligini oshirgan. Asar mazmuni badiiy vositalar orqali yanada o'zgacha mazmun kasb etishi bilan o'ziga xosdir. Badiiy tasvir vositalari faqatgina asar bezagi bo'lib qolmay, muallifning rangin tuyg'ular olami haqida tasavvur beruvchi manba yoki shoir ko'nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog'lovchi ma'naviy rishta hamdir. Shu ma'noda, badiiy san'atlarga xalq zakovati va badiiy balog'ati sifatida ham qaraladi. Asar qanchalik go'zal bo'lmasin, unda qanday san'at vositalari-yu, obrazlar qo'llanilgan bo'lmasin, uni kitobxonga yetkaza olmasa, asarning qiymati va noyoblighi o'z-o'zidan yo'qoladi. Asar borki, unda doim adabiyotning go'zal ifodalari qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Sharq.- Toshkent. 2012.5-151-betlar.
2. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Zarqalam.- Toshkent. 2006.80-85-betlar.
3. <https://arxiv.uz>
4. <https://www.ziyo.com> kutubxonasi

